| MARKAZIY OSIYODA SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA HAMKORLIKNING DOLZARB MASALALARI .....                                                                        | 334 |
| Amanbaev Amanali Orazbaevich                                                                                                                                  |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI TURDAGI LOGISTIKA XIZMATLARINING USLUBIY ASOSLARI.....                                                                   | 338 |
| Z. Teshayev                                                                                                                                                   |     |
| O'ZBEKISTON AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI SOHASINING AMALDAGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....                                                                 | 343 |
| Suyunov Asror Baxtiyorovich                                                                                                                                   |     |
| KORPORATIV BOSHQARUVDA LEADERSHIP 4.0 TAMOYILLARINI JORIY ETISH SAMARADORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....                                                    | 349 |
| Ismailov Allayor Rashidovich                                                                                                                                  |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH MASALALARI .....                                                                                       | 355 |
| Yusupov Farxod Adamboyevich                                                                                                                                   |     |
| O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISHNI USTUVOR YO'NALISHLARI .....                                                                  | 359 |
| Abdullaeva Nilufar Javdat qizi                                                                                                                                |     |
| MINTAQADA SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING SOLISHTIRMA EKONOMETRIK MODELLARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA) .....                                     | 363 |
| Saatmurotov Shohrux Zafar o'g'li                                                                                                                              |     |
| O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR .....                                                                      | 369 |
| Abdurazaqov Jasur Abdunasimovich                                                                                                                              |     |
| RAQAMLI PLATFORMALAR YORDAMIDA NORASMIY VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHNING QO'SHIMCHA IMKONIYATLARI TO'G'RSIDA.....                                   | 374 |
| Nasrullayev Hikmatullo Habibulloyevich                                                                                                                        |     |
| O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH MAQSADIDA "XIZMATLAR IPOTEKASI" MOLIYAVIY INSTRUMENTLARINI AMALIYOTGA JORIY QILISH MASALALARI ..... | 379 |
| Uskenbayeva Dilnoza Boxodir qizi                                                                                                                              |     |
| ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ КАПЕЛЬНОГО ОРОШЕНИЯ ПРИ ВОЗДЕЛЫВАНИИ ЛУКА В ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ.....                                             | 384 |
| Суюнов Шохзодбек Мурод угли                                                                                                                                   |     |
| XORIJIY DAVLATLAR SANOAT IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TAJRIBASI (YAPONIYA, KOREYA VA GERMANIYA MISOLIDA) .....                        | 389 |
| Mansurova Sayyora Baxtiyor Kizi                                                                                                                               |     |
| KORXONALARDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBGA OLIISHDA XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH .....                                                                    | 395 |
| Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li                                                                                                                            |     |
| PECULIARITIES OF THE IRRIGATION WATER DELIVERY PAYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN .....                                                                    | 399 |
| Muminov Sherzod Kholmirzaevich                                                                                                                                |     |
| DIGITALIZATION OF AGRICULTURAL PRODUCTS FOR EXPORT .....                                                                                                      | 404 |
| Azimov R.B.                                                                                                                                                   |     |
| AHOLI JON BOSHIGA UMUMIY DAROMADLAR HAJMINI TREND MODELLAR ASOSIDA PROGNOZLASH .....                                                                          | 409 |
| Xolto'rayev Islom Ilhomovich                                                                                                                                  |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI BANDLIK SHAKLLARI .....                                                                                                  | 416 |
| Sayipov Begzod Rahimovich                                                                                                                                     |     |
| TIJORAT BANKLARINING YANGI DAVR SHAROITIDA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASH USULLARI VA INDIKATORLARI .....                                                  | 422 |
| Sadikov Iskandar Gayratovich                                                                                                                                  |     |



## TIJORAT BANKLARINING YANGI DAVR SHAROITIDA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASH USULLARI VA INDIKATORLARI

**Sadikov Iskandar Gayratovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Soliq va soliq kafedrası i.f.f.d. (PhD), katta o'qituvchi

Email: i.sadikov@tsue.uz

ORCID:0009-0000-7401-1501

**Annotatsiya:** Maqolada tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholash usullari va indikatorlari tadqiq qilingan. Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholashni rivojlantirish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilingan. Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholash usullari va ko'rsatkichlari tizimlashtirilgan va ularni rivojlantirish bo'yicha takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik, baholash usullari, indikatorlar, tahlil, rivojlantirish, takliflar.

**Abstract:** The article studies the methods and indicators of assessing the financial stability of commercial banks. The research conducted on the development of assessing the financial stability of commercial banks is analyzed. The methods and indicators of assessing the financial stability of commercial banks are systematized and proposals are made for their development.

**Key words:** commercial banks, financial stability, assessment methods, indicators, analysis, development, recommendations.

**Аннотация:** В статье рассматриваются методы и показатели оценки финансовой устойчивости коммерческих банков. Проводится анализ исследований, посвященных развитию оценки финансовой устойчивости коммерческих банков. Систематизируются методы и показатели оценки финансовой устойчивости коммерческих банков, а также даются предложения по их развитию.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, финансовая устойчивость, методы оценки, индикаторы, анализ, развитие, предложения.

### KIRISH

Zamonaviy sharoitda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholash moliya tizimining barqarorligini ta'minlash, omonatchilar manfaatlarini himoya qilish hamda mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy elementi bo'lgan investitsiyalarni jalb etishda muhim rol o'ynaydi. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini muntazam baholash bank tizimidagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash va kelib chiqishi ehtimol bo'lgan inqirozlarning oldini olishga yordam beradi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoit tijorat banklarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi, shu bilan birga ularning moliyaviy barqarorligi uchun xavflarni ham o'z ichiga oladi, chunki banklar o'zgarib borayotgan makroiqtisodiy muhitga moslashishga majbur. Natijada, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi, ya'ni mijozlar, mulkdorlar, xodimlar va nazorat organlari oldidagi barcha majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish hamda ularning faoliyatining uzluksizligini ta'minlash qobiliyati pasayishi mumkin. Bu holat moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari orqali baholanadi.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi ko'rsatkichlari ularning moliyaviy holati va o'z funksiyalarini bajarish qobiliyatini aniqlashning asosiy vositalaridan biridir. Bankning barqaror moliyaviy holati nafaqat bankning



o'zi, balki butun iqtisodiyot uchun ham muhimdir. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi ko'rsatkichlarining iqtisodiy ahamiyati, avvalo, mijozlarning depozitlari xavfsizligini ta'minlashda namoyon bo'ladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ilmiy jihatdan chuqur tahlil etish maqsadida turli iqtisodchi olimlarning tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashga oid qarashlari, ilmiy maqolalari va nazariy yondashuvlarini har tomonlama o'rganish lozim. Xususan, O. Ovchinnikova va A. Beslar 2006-yilda tijorat banklari moliyaviy barqarorligi deganda banklarning tashqi ta'sirlardan qat'i nazar o'zining asosiy va yangi paydo bo'layotgan funksiyalarini bajara olish qobiliyatini tushunish kerakligini ta'kidlaydilar.

Mazkur fikrdan kelib chiqadiki, banklar moliyaviy barqarorligi — bu ularning tashqi ta'sirlarga qarshi turish, shu bilan birga o'z funksiyalarini to'laqonli bajarish qobiliyatidir. S. Urazov 2006-yilda banklar moliyaviy barqarorligini turli salbiy tashqi omillar ta'siri natijasida banklarning tenglik holatiga, ya'ni oldingi mustahkam pozitsiyasiga qayta olishi bilan izohlaydi. Haqiqatan ham, moliyaviy barqaror bank har qanday qiyin sharoitda yoki katta yo'qotishlar yuz berganda tezda tiklana olishi va bozorda o'z mavqeini saqlab qolishi muhim ahamiyatga ega.

G. Melikyan 2020-yilda banklar moliyaviy barqarorligiga ta'rif berishda ikki darajali yondashuvni taklif etadi — mikrodaraja va makrodaraja. Uning fikricha, mikrodarajada banklar moliyaviy barqarorligi — bu banklarning istalgan sharoitda mijozlar bilan bog'liq maqsad va vazifalarni bajarish, o'z faoliyatining davomiyligini ta'minlash qobiliyatidir. Makrodarajada esa banklar moliyaviy barqarorligi iqtisodiyotdagi turli subyektlar bilan o'zaro bog'liqlikda namoyon bo'ladi, ya'ni bank tizimi iqtisodiy qiyinchiliklarning oldini olish hamda tizim barqarorligini saqlashga xizmat qiladi. Olimning fikriga ko'ra, moliyaviy barqarorlik har qanday sharoitda banklarning faoliyatini izchil davom ettirishi, muammolar yuz berganda esa oldingi pozitsiyasiga qayta olishi bilan baholanadi.

Yu. G. Veshkin va G. L. Avagyanlar 2018-yilda tijorat banklari moliyaviy barqarorligini bank daromadlarining ularning xarajatlaridan oshgan qismi sifatida izohlaydilar. Shuningdek, ular bank foydasidan to'lanadigan dividendlar asosida moliyaviy barqarorlikka baho berish mumkinligini bildiradilar. Biroq bu yondashuv biroz munozaralidir, chunki bank foydasi umumiy faoliyat samaradorligini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkich bo'lsa-da, moliyaviy barqarorlikni aniqlashda uni shakllantiruvchi manbalarga alohida e'tibor qaratish lozim. Foydasi yuqori bo'lgan bank har doim ham moliyaviy jihatdan barqaror bo'la olmaydi.

P. A. Shalpanov 2014-yilda tijorat banklari moliyaviy barqarorligini "ichki va tashqi omillarga qarshi turgan holda bank resurslarini transformatsiya qilib, risklarni samarali boshqarish orqali o'z funksiyalarini amalga oshirish qobiliyati" sifatida ta'riflaydi. Biroq ushbu ta'rif ham moliyaviy barqarorlik mohiyatini to'liq qamrab olmaydi. Bunga sabab shundaki, muallif tijorat banklari faoliyatiga nisbatan biroz tor doirada yondashgan hamda bank likvidligi va to'lov qobiliyatiga doir fikrlari yetarlicha aniq ifodalanmagan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida umumlashtirish, guruhlashtirish, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil hamda statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi ko'rsatkichlari ularning moliyaviy holati va o'z funksiyalarini bajarish qobiliyatini baholashning asosiy vositalaridan biridir. Bankning to'g'ri moliyaviy barqarorligi nafaqat bankning o'zi, balki butun iqtisodiyot uchun ham muhimdir. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi ko'rsatkichlari iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, mijozlar depozitlari xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Banklar qanchalik barqaror va kapitallashgan bo'lsa, mijozlar uchun yo'qotishlar shunchalik kam bo'ladi.

Tijorat banklarining iqtisodiy sharoitlari ulardan moliyaviy barqarorlikni saqlash uchun katta kuch sarflashni talab qiladi. Buning uchun tartibga solish — aktivlar va passivlarni boshqarish, resurslarni optimallashtirish, faoliyatni diversifikatsiya qilish; barqarorlashtirish — xavflarni kamaytirish, sug'urta zaxiralarini shakllantirish, rentabellikni oshirish usullari qo'llaniladi.

Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga moliyaviy barqarorlikni majburiy baholash bilan bog'liq talablar asosida ko'rsatkichlar guruhi shakllantirilgan:

1. Kapitalni baholash ko'rsatkichlari. Kapital sifati va bankning o'z mablag'lari (kapitali) yetariligi baholanadi. Tijorat bankining moliyaviy barqarorligining eng muhim omili aynan kapitalni baholash ko'rsatkichlaridir. Bank o'z kapitaliga ega bo'lishi kerak, bu esa uning majburiyatlarini bajarishini va Markaziy bank tomonidan belgilangan majburiy standartlarga muvofiqligini ta'minlaydi.

2. Aktivlar sifatini baholash. Muddati o'tgan kreditlar ulushi, kreditlar va boshqa aktivlar bo'yicha yo'qotishlar zaxiralari miqdori, yirik kredit xatarlarining konsentratsiyasi aniqlanadi.



3. Mulkchilik tuzilmasining shaffofligini baholash. Bu yo'nalishda bankning mulkchilik tuzilmasi to'g'risidagi oshkor ma'lumotlarning yetariligi, bank boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan shaxslar haqidagi ma'lumotlarning mavjudligi, risklarni boshqarish tizimlari va ichki nazorat xizmati faoliyati inobatga olinadi.

4. Aktivlar va kapitalning rentabelligini baholash. Daromadlar va xarajatlar tarkibi, sof foiz marjasi va daromadlilik ko'rsatkichlari aniqlanadi.

5. Likvidlikni baholash ko'rsatkichlari. Jalb qilingan mablag'lar va yuqori likvidli aktivlar nisbati, tezkor, joriy va umumiy likvidlik, jalb qilingan mablag'lar tarkibi, banklararo bozorga bog'liqlik, o'z veksellari, bankdan tashqari kreditlar, majburiy zaxiralar va yirik kreditorlar (omonatchilar) uchun xavflar baholanadi.

Dunyo banklari tajribasida tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholashda CAMELS reyting tizimi keng qo'llaniladi. Ushbu tizim bank kapitali va uning yetariligi, aktivlar sifati, boshqaruv darajasi, daromadlilik, likvidlik hamda bozor risklariga sezgirlik darajasini aniqlash uchun ishlab chiqilgan. CAMELS tizimi AQSH Federal zaxira tizimi, Depozitlarni sug'urtalash federal korporatsiyasi va Pul muomalasi nazoratchisi tomonidan amaliyotga joriy qilingan.

C (Capital Adequacy) – kapital yetariligi.

A (Asset Quality) – aktivlar sifati; muammoli kreditlarning moliyaviy ta'siriga e'tibor qaratib, aktivlarning qaytarilish darajasini baholaydi.

M (Management) – boshqaruv sifati; qonun va ko'rsatmalarga rioya etilishi, ichki nazorat tizimining mavjudligi va samaradorligi baholanadi.

E (Earnings) – rentabellik; bank faoliyatining foydalilik darajasi va kelajakdagi rivojlanish uchun foydaning yetariligi aniqlanadi.

L (Liquidity) – likvidlik; bankning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyati baholanadi.

S (Sensitivity to Market Risk) – bozor xavfiga sezgirlik; foiz stavkalari, valyuta kursi va rentabellikni yo'qotish xavfi singari omillar tahlil qilinadi.

Har bir komponent besh balli shkala bo'yicha baholanadi, bu yerda "1" ball – eng yuqori, "5" ball – eng past darajani bildiradi. Bankning kompleks reytingi quyidagicha belgilanadi:

"1" ball – bank holati yuqori,

"2" ball – holat barqaror,

"3" ball – holat qoniqarli,

"4" ball – holat zaif, tanqidiy,

"5" ball – holat qoniqarsiz.

Har bir komponent reytingi asosida yakuniy ko'rsatkich shakllanadi. CAMELS texnikasining afzalligi — u banklarni standartlashtirilgan usulda baholash imkonini beradi va qaysi yo'nalishda faoliyatni yaxshilash zarurligini ko'rsatadi. Kompleks baholash nazorat organlariga bankka aralashuv zarurligini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, tizimning kamchiligi ekspert baholariga tayanishidir, bu esa yakuniy natijaning sifati nazorat organlari xodimlarining kasbiy malakasiga bog'liqligini anglatadi.

Shunday qilib, CAMELS reyting tizimi banklarning moliyaviy holatini, ularning barqarorlik darajasini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu tizim bank inqirozlarining oldini olish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish imkonini beradi.

CAMELS tizimiga ko'ra, har bir bank uchun oltita komponent asosida raqamli reyting belgilanadi va ularning har biri bo'yicha keng qamrovli ballar aniqlanadi.

Kapitalning yetarlilik koeffitsiyenti ( $K_1$ ) quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$K_1 = \frac{\text{Уз маблаглари манбалари}}{\text{Жами мажбуриятлар}}$$

Kapitalning yetarlilik koeffitsiyenti tavsiya etilgan qiymati 15–20% oralig'ida bo'ladi. Mazkur koeffitsiyent bank yoki boshqa moliya institutlarining moliyaviy barqarorligi hamda ishonchlilikini baholash uchun ishlatiladigan asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Ushbu koeffitsiyent bank kapitalining xavfli operatsiyalar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni qanchalik qoplashini va moliyaviy majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash imkoniyatini ko'rsatadi.

Aktivlardan foydalanish samaradorligi koeffitsiyenti ( $A_1$ ) quyidagi formula asosida aniqlanadi. Tavsiya etilgan qiymati 76–83% oralig'ida bo'ladi.

$$A_1 = \frac{\text{Банкнинг даромад келтирувчи активлари}}{\text{Жами активлари}}$$

Aktivlardan foydalanish samaradorligi koeffitsiyentining iqtisodiy mohiyati shundan iboratki, u bankning o'z aktivlarini qanchalik samarali boshqarayotganini hamda ulardan foydalanish natijasida qanday rentabellik darajalariga erishayotganini aniqlashga yordam beradi. Ushbu ko'rsatkichni tahlil qilish orqali bank investitsiyalari



va biznes jarayonlarining samaradorligi aniqlanadi. Bu esa, o'z navbatida, bankning moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini yaratadi.

Aktivlardan foydalanish samaradorligi koeffitsiyenti iqtisodiy tahlilning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, bankning foyda olish maqsadida o'z aktivlaridan foydalanish samaradorligini baholash imkonini beradi. Ushbu koeffitsiyent bankning moliyaviy maqsadlarga erishish jarayonida mavjud resurslardan qanchalik muvaffaqiyatli foydalanayotganini aniqlashga xizmat qiladi.

Xavfdan himoyalash koeffitsiyenti esa bankning sof foydasi va zaxiralariga nisbatan daromad keltiruvchi aktivlarda muddati o'tgan qarzlarining maksimal ulushini aniqlaydi (Risk). Mazkur koeffitsiyent quyidagi formula asosida aniqlanadi. Tavsiya etilgan qiymati  $\geq 5\%$  bo'ladi.

$$R_{\text{isk}} = \frac{T_f + \Phi_f + 3\Phi_z}{\text{Даромад келтирувчи активлар}}$$

$T_f$  – o'tgan yillardagi taqsimlanmagan foyda;

$\Phi_f$  – hisobot davridagi foydalanilmagan foyda;

$\Phi_z$  – zaxira fondi.

Xavfi yuqori bo'lgan aktivlar darajasi ( $R_{ad}$ ) bank aktivlarining tavakkalchilik darajasini tavsiflaydi va u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi. Tavsiya etilgan qiymati  $\leq 20\%$ .

$$R_{ad} = \frac{K_{\text{qisim}} + K_k + M_l + K_m + D_k}{\text{Активлар}}$$

Bu yerda,

$Q_{\text{qisim}}$  – qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar;

$K_k$  – boshqa kredit qarzlari;

$M_l$  – moliyaviy lizing operatsiyalariga investitsiyalar;

$K_m$  – muddati o'tgan to'lovlar bilan kreditlar va boshqa joylashtirilgan mablag'lar;

$D_k$  – debitorlik qarzlari.

Shubhali qarzlar darajasi muammoli kreditlarni bank kapitali bilan qoplash darajasini tavsiflaydi ( $Sh_q$ ) va u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi. Tavsiya etilgan qiymati  $\leq 5\%$ .

$$Sh_q = \frac{\text{Муддати ўтган кредитлар}}{\text{Банкнинг асосий капитали}}$$

Bankning jami kredit faoliyati aktivlarning umumiy tuzilishini tavsiflaydi ( $K_f$ ) va u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi. Tavsiya etilgan qiymati 55-80%.

$$K_f = \frac{\text{Кредитлар ва бoшқа жойлаштирилган маблағлар}}{\text{Активлар}}$$

Bankning investitsiya faoliyati ( $I_f$ ) bankning qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish va boshqa yuridik shaxslarning kapitalida ishtirok etishdagi faoliyatini tavsiflaydi va u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi. Tavsiya etilgan qiymati  $\leq 10\%$ .

$$I_f = \frac{K_{\text{qisim}} + Y_{\text{shke}}}{\text{Активлар}}$$

Bu yerda,

$Q_{\text{qisim}}$  – qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar;

$Y_{\text{shke}}$  – yuridik shaxslar kapitalida ishtirok etishi.

Umuman olganda, risk omillari CAMELS tizimining klassik tarkibiy qismlari hisoblanadi. Biroq boshqaruv sifati ko'rsatkichlari o'rniga biznes tahlili mezonlari qo'llaniladi. Kapitalni baholashda asosiy kapitalning qo'shimcha kapitalga nisbati hamda kapitalning yetarlilik koeffitsiyenti asosiy ko'rsatkich sifatida ishlatiladi. Aktivlarni tahlil qilish esa ularning o'zgarish tendensiyalari, sifati, diversifikatsiya darajasi, konsentratsiyasi va mulk xavfsizligini o'rganishni o'z ichiga oladi. Bozor xavfini baholashda bank mahsulotlari, valyuta pozitsiyasi, daromadlarning barqarorligi hamda turli iqtisodiy holatlar ta'sirida yuzaga keladigan zaifliklar tahlil qilinadi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning nazariy asoslari aktivlarni diversifikatsiya qilish, stress-testlardan foydalanish, kapital va likvidlikni tahlil qilish, risklarni samarali boshqarish kabi turli usul va vositalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, nazorat qiluvchi organlarning me'yoriy talablariga hamda xalqaro standartlarga rioya etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Banklarning moliyaviy barqarorligini samarali boshqarish ularning mumkin bo'lgan yo'qotishlarini minimallashtiradi, mijozlar va investorlar ishonchini mustahkamlaydi hamda iqtisodiyotning umumiy rivojlanishiga ijobiy hissa qo'shadi.

Iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda huquqiy asoslarning ahamiyati yuqoridir. Bank va umuman moliya sektorini tartibga soluvchi qonunchilik tizimi kapital, likvidlik, risklarni boshqarish hamda bank muassasalari faoliyatini nazorat qilishga doir aniq talablarni belgilaydi.

Tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni har bir bank puxta tahlil qilishi zarur. Ushbu tadqiqotda biz, avvalo, tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni nazariy nuqtayi nazardan o'rganib, ularning iqtisodiy mazmunini yoritdik. Keyingi bosqichlarda esa bu jarayonning amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilib, tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmlarini amaliyotda o'rganishga e'tibor qaratamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Овчинникова О.П., Бец А.Ю. Основные направления обеспечения динамической устойчивости банковской системы // Финансы и кредит. 2006. № 22
2. Уразов С.А. Устойчивость банковской системы: теоретические и методологические аспекты // Банковское дело. 2006. № 12.
3. Меликьян Г.Г. Актуальные вопросы капитализации, устойчивости и конкурентоспособности российского банковского сектора. URL: <http://www.cbr.ru/publ/moneyandcredit/melikyan.pdf>. XVI – Международный банковский конгресс. 2020
4. Вешкин Ю.Г., Авагян Г.Л., Экономический анализ деятельности коммерческого банка: Учебное пособие. М.: Магистр.-2018.
5. Шальпанов П.А. Управление ликвидностью: механизм прогноза денежных потоков банка. // Банковское дело. -2014.-№9. -56-60 стр.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 10

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---